

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

BOLALAR ADABIYOTIDA QO‘LLANILGAN KIYIM VA GAZLAMA NOMLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI (Xudoyberdi To‘xtabayev asarlari misolida)

f.f.n. M.T.Xudayarova

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI dotsenti

Annotatsiya: *mazkur maqolada Xudoyberdi To‘xtabayev asarlarida qo‘llanilgan kiyim va gazlama nomlarining leksik-semantik xususiyatlari o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *bolalar adabiyoti, kiyim nomlari, gazlama nomlari, Xudoyberdi To‘xtabayev asarlari, leksik-semantik xususiyatlar, badiiy asar tili.*

Bolalarga atalgan badiiy asarning tili umumbadiiy tilning normalariga va grammatik qurilishiga amal qilgani holda bolalarcha tafakkur qilishning o‘ziga xos ifodaviy vositasi bo‘lmog‘i, shu bilan birga, bola nutq boyligini muttasil oshirib borishga xizmat qilmog‘i shart. Bunda nuql bolaga moslashib qolmay, balki uni ergashtirib borishga intilib, bolaga notanish so‘z va iboralarni izohtalab qilib qo‘ymay, kontekstdayoq anglashilarli etib ifodalashga e’tibor bermoq lozim. Yozuvchi qaysi yoshdagi bolani mo‘ljallab asar yozayotganini hisobga olib, o‘scha yoshdagi kichkintoy lug‘at boyligi imkoniyatlarini ko‘zda tutgan holda ish tutmog‘i lozim.

Bolalar murakkab qurilmali gaplardagi mazmunni ilg‘ashga qiynaladilar, xususan, bunday gaplarda izohtalab arxaik so‘zlar qalashib kelsa-toqatlari toq bo‘ladi. Binobarin, gaplar ham sodda, mantiqdar, jonli, hayajonbaxsh va savodli qurilmog‘i, g‘ashga teguvchi qaytariqlar va mavhum iboralardan xoli bo‘lmog‘i lozim. Poetik obrazlar mavhum yoki qalashib ketgan sifatlashlar (epitetlar) asosida qurilmasligi darkor, bolalar kitobida har bir ifoda tabiiy, yorqin ma’noli va zavqovar bo‘lishi – uni tushunib o‘qish va uqib olishning muhim sharti hisoblanadi.

Ma’lumki, o‘zbek tilshunosligida sohalar leksikasiga xos bo‘lgan nomlar shu davrga qadar birmuncha o‘rganilgan bo‘lsa ham bolalar adabiyoti asarlari tilidagi kiyim va gazlama nomlari maxsus tadqiqot obyekti etib tahlilga tortilmagan. Shu bois, bu bolalar adabiyotidagi kiyim va gazlama nomlarini qiyosiy-tarixiy jihatdan o‘rganish, lisoniy xususiyatlarini tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir.

Kiyimlar moddiy madaniyatning asosiy qismlaridan bo‘lib, ularda shu xalqning milliy xususiyatlari va madaniy qadriyatlari namoyon bo‘ladi. Har bir xalqning an’anaviy mashg‘ulot turi (dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va h.k.), fasl va yoshdagi o‘zgarishlar, hatto o‘scha xalqning fe’l-atvoridagi nozik tomonlari ham

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mauzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

kiyimlarda mujassamlashgan. Kiyimlar tarixning turli davrlarida bo‘lgan o‘zgarishlar barobarida o‘zgarib borgan va o‘sha zamonning in’ikosini o‘zida aks ettirib turgan¹.

Xudoyberdi To‘xtabayev asarlaridagi kiyim va gazlama nomlarini o‘zining qo‘llanilish vazifasiga ko‘ra quyidagi leksik-semantik guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Bosh kiyim nomlari. Bosh kiyim nomlarini ikki guruhga ajratdik:

- a) boshga kiyiladigan kiyimlar: *do ‘ppi, shapka, shlyapa, qalpoq, telpak* kabi;
- b) boshga o‘raladigan kiyimlar: *ro ‘mol, salsa* kabi.

a) boshga kiyiladigan kiyimlar: **do‘ppi** – avra-astarli, ko‘pincha qavima, pilta urilgan, tepa, kizak va jiyakdan tarkib topadigan guldar yoki gulsiz, to‘garak yoki to‘rtburchak shakldagi bosh kiyimi.

– *Lekin juda boplading-da, uka, – dedi u, boshiga do‘ppisini kiya turib* (X. To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 9-bet).

Qalpoq – yupqa namatdan qilingan bosh kiyimi.

Ular shunaqangi ustaki, hushyor bo‘lmasak, sen bilan mening boshimizga qalpoq kiygizib ketishadi (X. To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 23-bet).

Shapka – rus tilidan olingan so‘z bo‘lib, erkaklar bosh kiyimini anglatadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida *shapka* bosh kiyimiga shunday izoh berilgan: peshona tomonida soyabonchasi – koziryogi bo‘lgan bosh kiyim; furajka, kepka².

Shlyapa – (nemischa schlappe – qalpoq, shapka) Atrofi soyabonli bosh kiyim³.

Hammasing boshida movut shlyapa, hammasing egnida ketvorgan kostyumlar, uchi ingichka tuflilarni aytmaysizmi! (X. To‘xtabayev. “Sariq devni minib”, 39-bet).

b) boshga o‘raladigan kiyim nomlari: **ro‘mol** – fors-tojikcha ro‘//ro‘y – yuz, bet; mol, -molidan – surtmoq, artmoq, ya’ni yuzni surtadigan, artadigan buyum ma’nosini anglatadi.

Ro ‘mol aslida yuz qo‘lni artish uchun mo‘ljallangan bo‘lsa ham bu buyum nomi boshga o‘raladigan kiyim nomiga ko‘chgan. M.Asomiddinova ro‘mol haqida shunday deydi: «Ro‘molning turkiysi *yovliq//jovliq* ro‘mol so‘zining o‘ramol, vo‘ramol shakllari qipchoq tip tillarning ichki fonetik xususiyatlariga moslanganidir, ya’ni ro‘mol so‘zi oldidan o‘/v tovushlari orttirilgan (proteza hodisasi). *Ro ‘mol* so‘zining eski o‘zbek tilida turkiycha varianti yog‘likdir. A.Navoiy asarlarida bu so‘z uchraydi: *Jola binafshaga urub toshini, bog‘lab ko‘k yog‘liq ila boshini* (A.Navoiy,

¹ <http://www.kitob.uz/cms/>

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006. To‘rtinchi jild. – B.545.

³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006. To‘rtinchi jild. – B.587.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

X.A.32). *Yog‘liq so‘zi o‘tmishda boshga o‘raladigan ro‘mol va bet-qo‘l artiladigan sochiq ma’nolarini ifodalagandir. Keyinchalik so‘zlarning ma’no taraqqiyoti natijasida ularning vazifasi o‘zgarib, ro‘mol faqat boshga o‘raladigan buyum turining nomi sifatida qolgan»⁴.*

Paxta gulli choynak, piyolalardan gap ochsam, uyulib yotgan andarta qalpoqlari-yu toy-toy qilib bog‘langan jun ro‘mollarga navbat kelmaydi (X.To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 108-bet).

Salla – [a. savat, to‘r salta; tugun] Uzunligi 1,5 metrdan 7 metrgacha bo‘ladigan, do‘ppi, kuloh, telpak ustidan o‘raladigan sidirg‘a mato, doka; musulmon erkaklarning bosh kiyimi.

Yo‘g‘-ey, qori pochchamning moshguruch soqollari ko‘ksilariga tushib turardi, qo‘llari tasbeh boshlarida savatdek salsa bo‘lardi (X.To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 26-bet).

2. Bo‘yinga o‘raladigan yoki taqaladigan kiyim nomlari: ushbu guruhgaga *sharf, galstuk* kiritish mumkin.

Galstuk – [nem. halstuch – bo‘yin ro‘mol] ko‘ylak yoqasi ostidan o‘tkazib, oldini tugun yoki bant qilib taqiladigan mato; bo‘yinbog‘.

Boshida shlyapa, ko‘ksida tuguni mushtumdek keladigan gulli galstuk (X.To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 26-bet).

3. Ustki kiyimlarni ifodalovchi leksemalar. Xudoyberdi To‘xtabayev asarlaridagi ustki kiyim nomlari turlariga quyidagilar kiradi: *ko‘ylak, yaktak, jemper, chophon, to‘n, kamzul, shim, palto, xalat, kostyum, kostyum-shim, shalvor, ishton, chakmon* kabi.

Xalat – (arabcha sovg‘a, in’om qilingan kiyim, mukofot) o‘zi ham, engi ham uzun keng bo‘lgan, tugma belbog‘ qo‘llanadigan ustki kiyim (asosan xotin-qizlar, ba’zan erkaklar ham kiyadi). 2. Shunday yoki shunga o‘xhash bichimdagi maxsus (tibbiyat, savdo kimyo va ayrim texnika sohalari xodimlari kiyadigan ust kiyim).

Nihoyat pastakkina uydan oq xalat kiygan bir ayol bilan chiqib kelishdi (Xudayberdi To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 40-bet).

Yaktak – [f. – bir qavat, astarsiz kiyim] uzun, ko‘krak oldi ochiq, erkaklar ko‘ylagi.

Bir oyog‘i cho‘loq, bir qulog‘i yo‘q, oq yaktak kiyib boshiga kichkinagina sallacha o‘rab olgan 55-60 yoshlardagi barvasta kishi Xo‘ja Ahror Vali masjidi darvozasini ichidan qulfladi (X. To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 208-bet).

⁴ www.ziyouz.com.kutubxonasi. Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari. – Toshkent: Fan, 1981, -B. 29.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

To‘n – oldi ochiq, paxtali yoki paxtasiz uzun ustki milliy kiyim; chopon⁵.

To‘n nomi haqida M.Asomiddinova shunday fikr yuritadi: «*To‘n* so‘zining etimologiyasi ma’lum emas. Qadimgi manbalarda yopinmoq, burkanmoq, qoplanmoq ma’nosini anglatuvchi to‘nandi fe’l shakli uchraydi. Quro‘mo‘sh yig‘achlar to‘nadi yashil (Hojib, 12). Bu so‘z to‘nanmoq fe’lidan kiyim nomiga, otga ko‘chgan bo‘lishi ehtimol»⁶.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, qadimi yozma yodgorliklar tilida *to‘n* so‘zi umuman *ust kiyim*, *chopon*, *chakmon*, *po‘stin* ma’nolarini anglatadi. Chunonchi, VI-VIII asrga oid Kultegin yodnomasida chopon ma’nosini ifodalagan quyidagi jumla uchraydi. *Ichra ash siz, tashra tonsiz, jabiz jablak budunta uza olurtim* (Malov, 31).

XV asrlardan boshlab ***to‘n*** so‘zi va uning arabcha, fors-tojikcha stilistik sinonim variantlari adabiyotlarda qo‘llana boshlagan.

Rikobi naqsh kimsonlig‘ sarosar,

To‘nida ortiq, ondin zebu zevar.

(Navoiy. M.Q., 14)

Demak, qadimi turkiy so‘z – *to‘n* umuman kiyim va kiyim turlari (ustki, ichki kiyimlar)ni ifodalab, keng ma’noda qo‘llangan. Davr o‘tishi va moddiy madaniyatning yuksalishi bilan kiyim turlarini ko‘paydi, ko‘plab ust kiyim shakllarini ifodalovchi *kamzul*, *chakmon*, *kostyum*, *palto*, *plash* kabi o‘nlab nomlar o‘zbek tili lug‘at tarkibiga singib ketdi. Natijada *to‘n* so‘zining ma’no doirasi ancha torayib, hozirda beqasam, banorasdan tikilgan avra-astarli, erkaklar kiyadigan ustki milliy kiyim turini ifodalaydigan bo‘lib qoldi⁷.

Yetti to‘n, yal-yal yonib turgan beshta atlas qayiqcha, o‘n bitta chust nusxa do‘ppi kiydirishdi, yetmishtacha gulasta taqdim etishdi (X. To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 257-bet).

Chakmon – odatda jun matodan tikiladigan erkakcha uzun qishki *to‘n*⁸. Bu nom XV asr va undan so‘nggi yozma yodgorliklarda uchraydi: *Mulla Farruh va Hofiz boshliq billa kelganlarga chakmon kiydirildi* (Boburnoma, 244). **Chakmon** turkiy so‘z bo‘lib, *chak/chech* – chekmoq fe’lidan *mon* affaksi qo‘sib yasalgan. Ko‘chmachi turkiy – tojik qabilalarida jundan chekib, bosish, jun ipdan chekib mato to‘qish qadimdan kasbdir. «Tadjiksko-russkiy slovar»da quyidagicha ta’rif berilgan: **Chakmon** – tuya yoki qo‘y junidan xonaki usulda to‘qilgan qo‘pol matodan tikilgan

⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006. To‘rtinchchi jild. – B.238.

⁶ www.ziyouz.com.kutubxonasi. Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari. – Toshkent: Fan, 1981, -B. 19.

⁷ www.ziyouz.com.kutubxonasi. Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari. – Toshkent: Fan, 1981, -B. 20.

⁸ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006. To‘rtinchchi jild. – B.448.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

kiyim: chakmoni bosma (436). Bundan anglashilishicha chakmon deb aslida to‘qimaning o‘ziga aytilgan, keyinchalik u metonimiya yo‘li bilan kiyim ma’nosida ishlatilgan⁹. Bu nom turkiy tillarda turli fonetik variantlarda uchraydi: qozoq, qirg‘iz tillarida shekpen, turkman tilida chekmen kabi.

V.V.Radlov lug‘atida qayd etilishicha, o‘zbek qabilalaridan yuz qabilasining bir qismi «Oq chakmon» nomi bilan yuritilgan. Yu.Ibragimov o‘rganilayotgan hududning Xo‘jayli tumani Qurbanak qishlog‘ida qara chekman etnonimi mavjudligini ta’kidlaydi [1:79].

L.Budagov lug‘atida bu so‘z turkiy tillarning hammasiga xosligi, tuya juni ipidan to‘qilgan matodan tikilgan erkaklar ust kiyim turini anglatishi yozilgan.

M.Asomiddinova «Devonu lug‘otit turk» asarida **chaydam** so‘zi mavjudligini, bu nom uyga solinadigan va yomg‘irda yopinchiq qilinadigan bir turli engil kigiz bildirganligini aytib o‘tadi¹⁰.

Hali o‘zimga kelmasimdan turib odamlar ustimga yopirilib, boshimga ho‘l chakmon yopishdi (X. To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 52-bet).

Ko‘ylak – qadimiy turkiy so‘z bo‘lib, XI asrdan shu davrgacha yozma yodgorliklarda turli fonetik variantlarda uchraydi: *er konlaklandi – odam ko‘ylak kiydi* (DLT,III,418); *komlak, konglak, koglak, kunlek, hatto konchak* varianti uchraydi.

«Devonu lug‘otit turk»da *kon* – xom teri (III,159) ma’nosida qo‘llanilgan.

Demak, teridan tikilgan yoki tayyorlangan *konglak* libos so‘z yasovchi la+k hamda «Attuhfa»da qayd etilgan *konchak* ham cha+k morfemalari orqali teri kiyim libosni anglatgan¹¹.

– **Ko‘ylaging** *kir bo‘lsa oqshom yuvib qo‘ysang ertalabgacha quriydi* (X.To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 18-bet).

Jemper – [ingl. jumper — yoqasiz kofta] jun, ip yoki ipakdan to‘qilgan, tugmasiz va yoqasiz kofta.

Ko‘ylagi, jemperlari o‘ziga biram yarashgan (X.To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 185-bet).

Kostyum – [fr. costume] Pidjak va shim yoki jaket va yubkadan iborat ustki kiyim.

Kostyumimni *yechmoqchi bo‘lib xiyol orqaga tashlandim-da, qarshimdagи barzangining qorniga tepdim* (X.To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 36-bet).

⁹ www.ziyouz.com.kutubxonasi. Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari. – Toshkent: Fan, 1981, -B.22.

¹⁰ www.ziyouz.com.kutubxonasi. Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari. – Toshkent: Fan, 1981, -B.22.

¹¹ www.ziyouz.com.kutubxonasi. Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari. – Toshkent: Fan, 1981, -B. 26.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Palto – [fr. paletot — palto <lot. palla — engsiz, xalatsimon kiyim, rido] odatda sovuq kunlarda ko‘ylak yoki kostyum ustidan kiyiladigan uzun ustki kiyim.

Yo ‘q, yo ‘q, bilasiz-ku, men so ‘zga uncha chechan emasman, barchasini nomma nom aytib berolmayman, yosh bolalarning bejirim kiyim-boshlarini aytsam, jersi paltolar qolib ketadi (X.To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 108-bet).

Forma – [lot. forma – shakl; tashqi ko‘rinish] ma’lum toifadagi kishilar uchun mo‘ljallangan, rangi, tikilishi va b. belgilari jihatidan bir xil kiyim.

Xullas, suyukli o ‘g‘illariga, ya ‘ni mulla Hoshimga, uning ruxsatisiz, allaqachon militsiya formasini kiygizib, hushtagigacha o ‘g‘irlab bo‘lishibdi (X.To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 17-bet).

Pijama – [ingl. pyjamas < f. + hind. – kiyim] Yumshoq matodan tikilgan, shim va keng kalta xalatdan iborat, uy ichida kiyiladigan engil kiyim.

Yo ‘l-yo ‘l pajama kiyib, hozirgina palov yegan bo‘lsa kerak, tishini kovlab, yo ‘l-yo ‘lakay kekirib Said akaning o‘zi chiqib keldi (X.To‘xtabayev. “Sariq devni minib”, 68-bet).

Shim – gavdaning belgacha bo‘lgan pastki qismiga kiyiladigan ustki kiyim.

Yangi sartarosh ichkari kirib, ikki qo‘lini shiminining cho‘ntagiga solgancha hushtak chala-chala, xonaning u yoq-bu yog‘iga nazar tashlab chiqdi (X.To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 12-bet).

Ishton – turkiy so‘z bo‘lib, yozma yodgorliklarda XI asrdan ma’lum. *Er ishtonlandi – odam ishton kiydi* (DLT, I, 305). XI asr tilida bu nom yana um – (*ishton, lozim, cholvor*) tarzida ham uchraydi (DLT, I, 74) XV asrdan e’tiboran ishton so‘zi bilan birga arabcha lozim, forscha izor, poyjoma, shuningdek, tunbon so‘zları qo‘llana boshlandi.

Yo ‘q ersa ul uy o ‘xshar ibr kishiga,

Ki, anda bo ‘lmaq ‘ay ishtonu belbog‘.

(Navoiy, N.Sh.)

*Katta chinor daraxti ostida besh-olti kishi cho‘zilib yotibdi, chinorning baland-past shoxlarida ham to‘rt-besh kishi-birovi ko‘ylagidan, birovi **ishtonidan** osilib qolgan* (X. To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 42-bet).

Bolalar adabiyoti tilida **ishton, shalvor, shim** nomlari keng qo‘llangan.

Salimjon aka ichkarida ola-bula shalvor kiyib, xuddi Afrika o‘rmonlarida yashaydigan zebra qiyofasiga kirib chiqdi-yu (X.To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 52-bet).

Qozoq tilshunosi B.A.Suleymanova **shalvor** so‘zi fors tilidan turkiy tillarga va undan rus tiliga o‘tgan va rus tilining fonetik qonuniga muvofiq *sharovar//sharovaro* ‘

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

deb talaffuz etiladi, degan mulohazani bildirsa¹², F.E.Korsh bu nom to‘g‘ridan-to‘g‘ri fors tilidan rus tiliga o‘tgan degan mulohazani bildiradi¹³. V.Vladimirtsov *shalovar* so‘zi turkiy tillar orqali mo‘g‘ul tiliga ham o‘tganligini va u polvonlar kurash tushganda kiyadigan, pochasi bo‘g‘iq keng ishtonni anglatishini aytadi¹⁴.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida *shalvor* – (ruscha sharovaro‘ – keng ishton < forscha ishton, shim) asosan uyda kiyiladigan, shimga o‘xhash kiyim¹⁵. **Shalvar** – forscha *ishton*, *shim* tarzida ta’rif berilgan.

4. Oyoq kiyim nomlari. Bu guruhgaga kiruvchi kiyimlar oyoqqa kiyilishi bilan farqlanadi. Mazkur guruhgaga har xil turdag'i poyabzallarni kiritish mumkin. Masalan, *paypoq*, *tuqli*, *kalish*, *mahsi*, *botinka*, *kerzi etik*, *shippak* kabi.

Paypoq – to‘piq, boldir yoki songacha berkitadigan, asosan to‘qib tayyorlanadigan oyoq kiyimi.

Katta singlim Oyshaxon paypoqlarimni yuvgan, kichik singlim Donoxon shimagda dazmol bosgan (X. To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 18-bet).

Tuqli – (qadimgi nemis tuffele, gollandcha tuffel – boshmoq,< yunoncha pantophell – tagligi po‘kakdan bo‘lgan sandalet) to‘piqdan past oyoq kiyimi¹⁶.

Mehmonlarning hammasi naftalin bilan atirning aralash hidi anqib turgan chiroyli kastyumlar, yiltiroq tuflilar kiyib kelishibdi (X. To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 80-bet).

Botinka – [r. botinka <fr. botte -etik] Ip taqib yoki tugmalab kiyiladigan qisqa qo‘njli poyafzal.

Avvaliga uyqusirab, meni katta o‘g‘li deb o‘yladi shekilli, uxlatasanmi, yo‘qmi, deb bir moy botinkasini qo‘liga olib urmoqchi bo‘ldi, keyin men ekanligimni bilgach kulib, yelkasini qashidi (X. To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 87-bet).

Etik – boldirni bekitib turadigan uzun qo‘njli, poshnali poyabzal.

Egnida kunduzli palto, oyog‘ini katta kerzi etik, boshida qulqchin (X. To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 150-bet).

Kalish – [r. galoshi/kaloshi <fr. galoches – rezina poyabzal] Nam o‘tkazmaydigan, odatda mahsi, botinka kabi poyabzallar ustidan kiyiladigan, rezinadan ishlangan oyoq kiyimi.

– *To‘xtanglar, mening kalishim oqib ketibdi,-deb qattiq gapirib yubordi Muslim bobo* (X. To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 161-bet).

¹² Suleymanova B.A. Issledovaniya po istorii kazaxskogo yazika. Alma-ata. 1965. –S.85.

¹³ Korsh F.E. Po povodu Vtoroy stati Melioranskogo o turetskix elementax v yazo‘ke. – SPb, 1906, -S.270.

¹⁴ www.ziyouz.com.kutubxonasi. Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari. – Toshkent: Fan, 1981, -B.28.

¹⁵ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006. To‘rtinchchi jild. – B.505.

¹⁶ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006. To‘rtinchchi jild. – B. 214.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Mahsi – qo‘y yoki echki terisidan tayyorlanadigan, uzun qo‘njli, poshnasiz, tagchami yumshoq, kavush yoki kalish bilan kiyiladigan milliy oyoq kiyimi.

Xuddi Odil battolning o‘ziga o‘xhash og‘zi haddan tashqari katta, yalpoq yuzli, serajin peshonasi eski mahsidek tirishib ketgan ellik besh oltmish yoshlardagi bir odam i-iylab, sekin o‘rnidan turdi (X.To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 158-bet).

4. Gazlama nomlari: Bu guruhga kiruvchi nomlar kam miqdorni tashkil etadi. Bunga *atlas*, *chit*, *shoyi*, *sherst* kabilarni kiritish mumkin.

Chit – [f. < hind. – gulli ip gazlama] paxta tolasidan to‘qilgan mato, gazlama.

Har xil chitdan tikilgan katta-kichik beshta xaltacha bor, hammasida ham o‘zimizning aptekalarda sotiladigan oddiy dorilar (X.To‘xtabayev. “Sariq devni minib”, 17-bet).

Shoyi – [f. – shohga oid, mansub] ipakdan to‘qilgan gazlama, mato; shohi.

Sherst – [r. sherst, sherest – o‘rdak, g‘oz pati; hayvon juni] jundan to‘qilgan mato.

Ustida oq shoyidan sorochkasi bor, shimi yo‘l-yo‘l sherstdan dazmollanmagan (X.To‘xtabayev. “Sariq devni minib”, 28-bet).

Atlas – [a. tekis, silliq; ipakdan to‘qilgan mayin mato] bir tomoni yaltiroq, guldor, kudunglangan mahalliy ipak gazlama.

Yetti to‘n, yal-yal yonib turgan beshta atlas qayiqcha, o‘n bitta chust nusxa do‘ppi kiydirishdi, yetmishtacha guldasta taqdim etishdi (X.To‘xtabayev. “Sariq devning o‘limi”, 257-bet).

O‘zbek bolalar adabiyoti asarlari tilidagi kiyim va gazlama nomlarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish katta ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib, u tilning leksik tizimini zarur materiallar va adabiy til me’yorlarining yangi leksik birliklar evaziga boyishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ibragimov Y. M. Leksika uzbekskix govorov Priaralya. – Nukus: Bilim, 1996. –S.79
2. Korsh F.E. Po povodu Vtoroy stati Melioranskogo o turetskix elementax v yazike. – SPb, 1906, -S.270.
3. Suleymanova B.A. Issledovaniya po istorii kazaxskogo yazika. Alma-ata. 1965. –S.85.
4. Xudayarova, M. (2020). Qoraqalpog'iston o‘zbek shevalaridagi taom nomlarining o‘ziga xos xususiyatlari. TDPU ILMIY AXBOROTLARI.
5. Худаярова, М. Т., Буранова, Ш. М., Юсупова, Г. А., & Сапарова, А. З. (2021). Қорақалпоғистон Ҳудудида Яшовчи Туркий Халқлар Тилидаги Таом Номларининг Лексик Қатламлари. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(5), 25-32.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALAR”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006. To‘rtinchi jild. – B. 214.
7. Xudayarova, M., & Usanova, Q. (2023). “BOBURNOMA”–TARIXIY MANBA SIFATIDA. Академические исследования в современной науке, 2(4), 24-27.
8. Usanova, Q., & Xudayarova, M. (2024). O‘ZBEK, RUS VA QORAQUALPOQ TILLARIDA SON SO ‘Z TURKUMI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(3), 7-9.
9. www.ziyouz.com.kutubxonasi. Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari. – Toshkent: Fan, 1981, -B.28.
10. <http://www.kitob.uz./cms/>
11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2006. To‘rtinchi jild. – B.505.
- 12.www.ziyouz.com.kutubxonasi. Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari. – Toshkent: Fan, 1981, -B.